

Yangi ishlanmalar va ilg`or usullar — taraqqiyot mezonlari

2018-yil 22-26-oktabr kunlari Toshkent shahridagi “O‘zbekpomarkaz”da Xalqaro innovatsiya yarmarkasi doirasida “InnoWeek” innovatsion va investitsion forumi bo‘lib o‘tdi. Mazkur tadbirning maqsadi mamlakatimizda va chet elda ishlab chiqilgan yangi texnologiyalarni namoyish qilish, texnologiyalar almashish, qadimgi usullarni modernizatsiya qilishdir, natijada aholi turmush sifatini yaxshilashga va mamlakat iqtisodiyotida yangi investitsion imkoniyatlarni aniqlashga qaratilgan.



O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti ham “InnoWeek”da ikkita yangi soyaning “Sochilmas” navi hamda tuproq unumdorligini oshirish uchun biologik mahsulot “Bioazot” ishlanmalari bilan ishtirok etdi.




Bundan tashqari, O'zR FAGenomika va bioinformatika markazi tomonidan Gen-nokaut texnologiyasi yordamida kartoshkaning yangi navlarini olish hamda tok o'simligining noyob vinobop navlarini in vitro ko'paytirish loyihalari namoyish etildi.


КАРТОШКАДА (*SOLANUM TUBEROSUM* L.) ГЕН-НОКАУТ ТЕХНОЛОГИЯСИ ЁРДАМИДА АГРОНОМИК ХУСУСИЯТЛАРИ ЯХШИЛАНГАН БИОТЕХНОЛОГИК НАВЛАР ОЛИШ

Лойиҳанинг мақсади

Картошкани қатор агрономик хусусиятларини (ҳосилдорлик, эртагишарлик) яхшилаб қисқа муддатларда янги биотехнологик навларни яратиш.



In vitro шароитида олинган микротуганаклардан иссиқхона шароитида мини туганаклар олиш ва 2019 йилда (биринчи йил далаларида) супер-супер-элитга уруғлик етиштириш.



А – Ўзида картошка РНУВ сени туганган мини-туганак;
В – назорат (трансформация бўлмаган мини-туганак).

Лойиҳа паспорти

Лойиҳа манзили		Тошкент вилояти
Лойиҳа ташаббускори		Геномика ва биоинформатика маркази
Лойиҳа муддати		2019-2023 йиллар
Лойиҳа қиймати		8,0 млрд. сўм
Лойиҳанинг йиллик қуввати		200 тонна
Бир кг уруғ нархи		8 000 сўм
Мавсумий даромад		1 600 000 000 сўм
Ишга тушириш муддати		2019 йил
Яратиладиган қўшимча ишчи ўрни		20 та



ТОҚ ЎСИМЛИГИНИНГ НОЁБ ВИНОБОП НАВЛАРИНИ IN VITRO КЎПАЙТИРИШ

Лойиҳанинг мақсади

Тоқ ўсимлигининг йўқолиб бораётган ноёб винобоп навларини in vitro кўпайтириш



- Шардоне
- Пино-гри
- Совиньон
- Кабарние
- Дюбре Де-Марсель
- Пуке
- Мальвазия красная
- Альфонс лавалье



Лойиҳа паспорти

Лойиҳа манзили		Тошкент вилояти
Лойиҳа ташаббускори		Геномика ва биоинформатика маркази
Лойиҳа муддати		2019-2020
Лойиҳа қиймати		3 млрд. сўм
Лойиҳанинг йиллик қуввати		180 000 дона
Бир дона кўчат нархи		15 000 сўм
Ишга тушириш муддати		2019 йил
Яратиладиган қўшимча ишчи ўрни		20 та





Ushbu ishlanmalar “O‘zsanoatqurilish” banki tomonidan moliyalashtirilib, tadbirkorlar bilan hamkorlikda ishlab chiqarishga joriy qilinmoqda. “Innoweek-2018” yopilish marosimida O‘zR FA Genomika va bioinformatika markazi xodimlari tomonidan taqdim etilgan ishlanmalar bir qator nominasiyalarda g‘olib deb topilib, estalik sovg‘alar va sertifikat bilan taqdirlandi.

